

1

Gapning poskallasini aytganda: men Frenk bilan umuman uchrashmaganman. Hatto asl koreyscha ismini ham bilmayman. Tasavvurim erimning u haqida aytib bergan gaplari doirasidagina edi. Ular bolalik choglarida yonma-yon uyda yashashgan, karate togaragiga birga qatnashgan va yoshlari ulgaygach ham yelkama-yelka bolishgan. Frenk bundan yigirma yil avval Kanadaga kochib ketdi va kichikroq avtomobil ehtiyoq qismlari magazinini boshqarmoqda. U qaynotamning opasining ogli bolib, Kanadaga kochib ketgach ismini Frenk deb ozgartirib olgan edi. Bu mening Frenk haqida bor bilganlarim. Ular ikkovlashib yelkalariga gitarani ilib, parkka tez-tez borib turishar, ozlariga shoxlik qilayotgan qizlarga etibor berishmasdi. Parkda qoshiq kuylashib, barzangi yigitlar bilan kurash tushishardi. Nishonga oq otishda va kurashda Frenk doimo yutganligini erim ogzidan bol tomib hikoya qilib berardi:B Shunday oshnam bor mening

Kopinchal erim xotirlaydigan yoshlik choglari haqidagi hikoyalarni tinglab, Frenkni boydoqlarning eng barnosi yoki chirolyi aytganda B<sup>u</sup>igitning gul, deb xayol qillardim. Frenk juda baquvvat bolib, aytishlaricha, kurashda hech qachon yengilmagan ekan. Erim Frenk bilan birga tushgan suratini menga kop korsatgan. Frenk harbiy xizmatni otash uchun dengiz kuchlari flotiga ketishidan avval olingan rangsizgina suratda erim va Frenk bokschilarga oxshab maykachang bolib, mushtlarini bir-biriga birlashtirgancha kulib turibdi. Erimning boyi sal balandroq bolib, qorachadan kelgan, qandaydir oziga tortib turgan yigitcha Frenk edi. Korinishidan endigina yigitlikka qadam qoygan paytlari bolsa kerakki, moylovlari sabza ura boshlagan.

Bazan shu suratni korsatib:

- Siz ham shunaqa ozgin bolganmisiz? - deb erim bilan xazillashib qoyaman.
- Korib turib sorashingni qara-yu, - deydi u. - Yoshligimda jangovor kinolarga xavas qilib, devorga ikki oyogimni tirab chiqishni organgandim.

U osha suratga tushganidan to meni uchratguniga qadar naq yigirma kilogrammga semirgan bolsa, toyimizdan to hozirga qadar yana yigirma kilogrammga B<sup>u</sup>tosh bosadigan boldi deb xisoblash mukin. Bir yuz sakson santimetrik boyiga 100 kilogrammdan ortiq vazni biroz qorqinchli tuyulishi mumkin, lekin mening nazarimda u darajada tonka emas. U mexribon va anchagini xissiyotli ham. Televizorda serial korib, bazida tasirlanib kozyosh ham tokib turadi va xatto aktyorlarga taqlid qilib xursand qilib turadi. Oshanda iqtisodiy qiyinchilik atalmish rassom odamlar taqdiriga yoqchilik va yetishmovchilik degan rasmlarni chizayotgan damlar edi. Erim ishsiz bolib qoldi. Uning oltita texnik sertifikati borligi tufayli avvaliga bundan unchalik xavotir olmadim. Chunki ish joyi albatta topilishiga ishonardim. Lekin vaqt otar,lekin xadeganda ish topilmasdi. Bir qancha joylarga xujjat topshirib kordi, tanish-bilishlaridan surishtirdi. Barcha joydan deyarli bir xil javob kelardi:Hozir axvolimiz yaxshimas. Bosh joy yoq!. Erim sanoat kollejini tamomlagach, shu soxa boyicha institutni ham bitirgan. Soch quritadigan moslama ishlab chiqaradigan korxonada ishlab yurgan choglarida meni uchratgandi. Men oshanda sport buyumlari savdosi bilan shugullanadigan supermarketda ishlardim. Bir kuni u dokonimizga kiyim olgani kirgandi. Lekin unga togri keladigan kiyim topilmadi. B<sup>u</sup>Keyingi safar kelsangiz topib qoyaman,deb kuzatdim. Boshqa safar kelganida u meni uchrashuvga taklif qildi. Oshanda unga birorta kiyim ham mos kelmaganligi butun supermarketda shov-shuv bolgandi. Uning soddadil va kamtarligi semizligini bekitib ketgandi. Toyimizdan keyin u ikki marta ish joyini ozgartirdi. Avvaliga soql qiradigan asbob chiqaradigan korxonada ishladi, songra guruch qaynatadigan elektron qozon korxonasida ishladi. U ishsiz bolib qolgan vaqtida oglimiz boshlangich matabda oqirdi. Aksiga olib, muammolarimiz qalashib ketdi: oglimizning oqishiga tolanaqidan shartnomaga pulidan tortib har oyda tolab boriladigan kvartira qarzlarigacha kundan kunga osib borardi. Buyoqda men ham uyda ishsiz otiribman. Uxlab yotganimda xuddi boshimni ichidan bir maxluq kemirib kelayotgandek chocib uygonaman.

Bir qancha joylarga bosh suqib korgach savdo markaziga ishga joylashdim. Turmush qurishimdan avval supermarketda ishlaganligim qol keldi, chamamda. Maoshim qoniqarli bolganligidan hech bolmasa yeb-ichish va kiyim bilan taminlay olardim. B<sup>u</sup>Erim ham tez orada ishga joylashsa, hammasi iziga tushib ketadi, oyladim. Ammo oradan shuncha oy otib ketdiki, erim xaliyam uyda koksini yerga berib yotardi. Mundoq qarasam, erim ishga joylashish haqida bosh qotirayotgani ham yoq. Jaxl chiqmasdan iloj yoq. Zaxrimni totib korgan erim yana ish izlashga tushdi. Axvolimiz battar abgorlashib borayotganligini er kishi xis qilmasa ayol nima ham qila olardi?

Nixoyat, kunlardan bir kuni hayotimizga Frenk kirib keldi. Yarimkechaga yaqin ishimni tugatib, suvgan bosib tuzlangan karamga oxshab boshashib ketgan tanamni zorga kotarib uyga keldim. Erim bozchining mokisidek uyoqdan buyoqqa qatnab turibdi.

Aftidan, meni kutayotgan edi. Stulga chokishim bilan u sabrsizlanib ichidagini tokdi.

Aytishicha, bugun Frenk qongiroq qilibdi. Ishlari joyidaligiyu, juda semirib ketayotganligidan tashvishda ekanliginiyam qistirib otibdi. Naq bir yuz yigirma kilogrammnini urib qoyibdi! Erimdan ishlari qanday ketayotganligini qayta-qayta sorabdi.

Soddaginam: Vaznim yuzdan oshdi!, debdi va semizlikdan tunlari uyqusib qochib, ishtaxasi ham kamligini qoshib qoyibdi. Frenk esa kulibdi. Taskin bergen bolibdi va B<sup>u</sup>Ish bor, debdi, B<sup>u</sup>Kanadadan Koreyaga dengiz qisqichbaqasi va uning yogini eksport qilish biznesini yolga qoymoqchiman. Erimning B<sup>u</sup>Pulim yoq. Men senga biznes sherik bololmasam kerak, degan javobiga:Xavotirlanma: ozim pul tikaman bu ishga. Senga jonatiladigan molni olib, Koreyada sotishni amalga oshirsang bas. Bu ham sherikchilikka kiradi, oshna, debdi.

Erim gapini tugatishi bilan umrimda biron marta qisqichbaqa yeb kormaganligim yodimga kelib:

-Koreyada sotilarmikan-a qisqichbaqa yogi?-dedim kozlarimni bir nuqtaga tikib.

-Bu nima deganing? Biz yemasligimiz - butun Koreyadagilar yemaydi degani emasku, - gapimni chort kesdi erim. B<sup>u</sup>" Bir xafizada hech bolmasa bir marta qisqichbaqali taom yeydigan oilalar bor. Har kuni yeydiganlar ham topiladi.

-Shunchalik mazalimi?- dedim qiziqsinib.

Ertasi kuni er-xotin ikkovlashib ogilchamizni yetaklagancha qisqichbaqali taom tatib korgani gavjum kafelardan biriga bordik. Insol bilan aytganda, mazali ekan. Biroq narxi chontagimni andak xafa qildi: bir oylik maoshimning yarmini tolab chiqdim. Osha kunning ozidayoq erim qisqichbaqali taom tayyorlaydigan kafelaru savdo kompaniyalaridan surishtiruvni boshladti. Har kuni Frenk bilan qongiroqlasharkan, qolgan yarim maoshim xalqaro telefon sozlashuvlariga ketdi.

Oradan bir oy otgach u:Kanadaga borib kelmasam bolmaydiga tushib qoldi. Oilaviy sharotimiz nochorlashib qolganligini rokach qilgan qaytariqlarimga qaramasdan shaxsan borib qisqichbaqa narxi va boshqa mayda-chuydalarni xal qilish kerakligini tushuntirdi. B<sup>u</sup>Bu telefon orqali bitadigan ish emas! Baxonada Frenkni korib ham kelaman. Yana qachon uchrashamiz u bilan?-deya gapiga nuqta qoydi.

Endi erimning samalyot chiptasini xal qilishimiz zarur edi. Oxirgi sozlashuvlarida Frenk samalyot chiptasini xal qilib berishga vada bergen bolsa ham erimning gururi yol qoymadi. Har xolda biznes uchun bir tiyin goshmaydigan erimga dengiz

qisqichbaqasi biznesini olib bermoqchi bolayotgan odamdan samalyot chiptasigacha olib berishni iltimos qilish tasavvurga sigmaydigan girt tentaklik bolardi.

Baliq ovi buyumlari savdosi bilan shugullanadigan akamdan qarz kotaishdan boshqa ilojim qolmagandi. Telefon goshagini kotargan akam iltimosimni diqqat bilan eshitgach:

-Oxirgi paytlarda bozorim olib,singilginam. Haridor yoq Hayronman: odamlar baliq ovlashga qiziqmay qoyishgan chogi - deya nolish bilan soz oldi. Men erimning biznes rejasiga haqida batafsil gapirib berdim va qarzni uch oy ichida qaytarib berishga vada berdim. Akam konishdan boshqa chorasi qolmagandi.

Goshakni ilib yonimda turgan erimga xushxabarni aytishim bilan erim chapak chalib yubordi:

-Xudoga shukur, yaxshi boldi. Endi Kanadadan qisqichbaqani olib kelsak bas.

U maktabga ilk qadam qoyayotgan boladay sabrsizlik bilan Kanadaga borish tayyorgarligini boshlab yuborgandi. Hayotida birinchi marta xorijga borayotgan erim sayoxat kitobchasi va qishlik buyumlari sotib oldi. (Frenkning aytishicha, Kanada Koreyaga qaraganda ancha sovuqmish. Yengil kiyimda borsa muzlab qolish hech gapmasmish.) Kanadada sigaret juda qimmat degan mishmishni eshitgan erim besh quti Koreya sigaretni olishni ham unutmadi, har ehtimolga qarshi dori-darmonlardan ham harid qildi. Xattoki ayollar uchun krem ham chetda qolmabdi.

-Buni nima qilasiz?- soradim hayratlanib.

-Ozim ham bilmayman. Tiqilinchda olibman

Hamma narsa tayyor. Kanadaga samalyot chiptasi buyurtma berilsa bas. Lekin hisobimizda bir tiyin ham qolmabdi. Yana akamning telefon raqamini terishga togri keldi. Yana osha nola eshitildi. U odamlar nima uchun baliq ovlashni chetga surib qoyishganligi sababini aniqlaganini qoshib qoysi:

-Akvalangda suv ostiga shongish modaga kirdi!

Shuning uchun dokonida baliq ovi jixozlari bilan birga suv ostida zavqlanish uchun zarur bolgan buyumlarni ham sotmoqchiligin, bunaqa narsalar oylaganidan ham qimmatroq ekanligini qistirib otdi. Erimning gaplarini totiqushdek takrorlab turaverdim:

-Kanadadan qisqichbaqa kelsa bolgani B'T hammasi yaxshi boladi

Chuqur uf tortgan akam yoz mavsumi boshlangunga qadar uch oy ichida qaytarib berishni shart qilib qarz berishga rozi boldi. Xullas, Kanadaga chipta buyurtma berilib, tayyorgarlik deyarli nihoyasiga yetdi. Bu vaqt ichida erim ingliz tili sozlashgich kitobini sotib oldi va zerikkan paytlarida uni varaqlab qoyardi. Har ehtimolga qarshi ingliz tilini organib qoyish zarar qilmas. (Yolgiz kochaga chiqqanda koreyschalab gapirmaydiku).

Kitobni ogilchamizga berib qoyer, u esa erimni savolga tutardi:

-Buxursandman sozi qanday aytildi?

-HauHau Hau

-Shahar xokimiyati qayerda? deb sorangchi.

-Shahar xokimiyati? U xaligi Xokimiyati? Sal yordamlashib yubor.

-Shahar xokimiyati Buxitixol boladi. Uyogini topingchi

-Ha, BuxitixolTogri. Boldi-boldi,topdim. Shahar xokimiyati Buxitixol bolsa xaligi anaqa

Ingliz tilidan tayyorgarlik har kuni shunday davom etardi.

Erim Kanadaga uchadigan kun ham keldi. Men uni kuzatish uchun ishdan qololmasdim. Shuning uchun ertalab xayrashib, oq yol tiladimu ishga yugurdim. U:

-Aeroportda telefon qilaman, - dedi va yengilgina quchdi.

Ish topish qiyin bolgan paytlarda kechikish yaxshi emas B'T savdo markazimizga qushdek uchib keldim. Yetib kelishim bilan erimdan qongiroq boldi:

-Qora kozoynagimni topolmayapman. Mabodo tashlab yubormaganmid? B'T dedi erim ozini xotirjam tutishga urinyotgandek tutib.

-Kichik papkangizga solib qoyganman. Yaxshilab qidiring, - dedim ovozimni pasaytirib.

Shu tarzda u aeroportga yetib borguniga qadar yetti marta qongiroq qildi. Aeroportdan turib esa meni ikki marta bezovta qildi. Bir safar samalyot chiptasini topolmayotganligini aytgan bolsa, ikkinchisida Frenkning telefon raqами yozilgan bloknotini qidirayotganini aytdi. Haridorlarning yoqtirmagandek galati qarashlaridan ming istixola qilib, telefonim har jiringlaganda yuragim qinidan chiqib ketgudek bolaverdi.

-Yaxshilab, shohsmasdan qarang. Hammasi joyida bolishi kerak,- dedim men qaynab kelayotgan zardamni ichimga arang yutib. Nioxot samalyot chiptasi u kirib chiqqan xojatxonadan chiqdi. Bloknot esa topilmadi.

-Hechqisi yoq. Frenk aeroportga kutib oglani chiqaman degan - dedi erim sal xotirjam tortib. B'T Har ehtimolga qarshi Frenkning raqamini uydagi daftaringa ham yozib qoyganman. Topolmasam, Torontoga borgach senga telefon qilib kochirib olarman.

Xavotirlanma!

Men esa goshakni qoygach, erim Kanadaga borib qisqichbaqa yogini olib kelishiga ishonqiramay qaray boshladim

Uning keyingi qongirogi chogida men shirin tushlar ogushida edim. Sanoqsiz qisqichbaqalar men tomonga suzib kelyapti. Birdan ular yogga aylandi. Xursandligimdan chapak chalib yuboribman. Qisqichbaqa yogi orasidan telefon jiringlashi eshitildi. Kozimni ochdimu telefon ovozi tushimda eshitildimi yoki ongimdamni biroz karaxt yotdim. Bosh tarafimdagagi telefon asabiy jiringlardi.

Asta yonboshimdagagi soatga qaradim: tonggi tort. Erim chiqqan samalyot osmonu falakka kotarilganiga roppa-rosa on yetti soat bolgandi.

Goshakni olishim bilanoq shovqin-suron orasidan erimning talmovsiragan ovozi eshitildi:

-Azizam, Kanadaga qonganimga uch soat boldi. Hozir aeroportdan telefon qilyapman. Frenk bilan xali korishmadim, - dedi ikkilanibgina.

-Iye,bu nimasi?-dedim hayratimni yashirolmay.

-Ozim ham hayronman. Tezda uydagi telefon daftaridan Frenkning telefon raqamini aytib yubor,- dedi erim yutoqib. Uyqum xali toliq ochilmay turtinib-surtinib telefon daftarini axtara boshladim. Oxiri topdim va sinchiklab qaradim:F-r-e-n-k Raqamlarni adashtirib yubormaslik uchun donalab aytdim.

-Boldi,raxmat,- dedi erim salgina xotirjam tortib.-Uyqungni buzganim uchun uzr,azizam.

Ammo men bamaylixotir uxmlay olmadim. Uyoqqa aganab,buyoqqa aganab tong ottirdim

Ertalab ishga keldimu sotuvchilar taxtasiga kirishim bilan qol telefonim musiqasi yangradi. Tabiiyki, erim edi.

-Fren bilan uchrashdingizmi?-birinchi savolim shu boldi.

-Yoq Bir necha marta qongiroq qilishimga qaramay goshakni hech kim olmadi. Biror gap bolganga oxshaydi, - dedi u astoydil xavotirlanib. B'T "Balki u uyimizga telefon qilib qolar. Meni aeroportning 13-chiqish yolakchasida kutib turganligimni aytib qoy. Suxbatimiz shu bilan tugadi. Oylab qarasam, Frenk mening qol telefon raqamimni bilmasdi. Demak, u uy telefonimizga qongiroq qilishi kerak. Turfa xayollarga berilib ketibman. Sotuvchi xodim xayolini bir joyga jamlab ishlamasma qiyin ekan: bir haridorning maydalab kesilgan baliqlarini paketga solib berarkanman qolimdan tushirib yubordim. Kunboyi peshtaxta oldidan baliq xidi anqib turdi: otgan-ketgan burnimi jiyirib otishi hammasidan oshib tushdi. Ish tugashi bilan oglimni matabdan oldimu uyga uchdim. Buni qarangki, uyga kirib kelishim bilan telefon jiringladi. Notanish erkak ovoz berdi. U ozini Frenk deb tanishtirdi. Men avvaliga bu kishi Frenk ekanligiga ishonolmadim. Chunki erim tariflagan Frenkni bunaqa dovdirab, xuddi pashshadek gongillab gapiradi deb oylamasdim. U erim keladigan kunni adashtirib yuborganligini aytdi va uni topolmaganligini chaynalib qistirib otdi.

-U sizni Toronto aeroportining 13-chiqish yolakchasida anchadan beri kutib otiribdi,-dedim men. U uzr soradi va vaqt topib Kanadaga mexmonga borishimni soradi. Goshakni qoyarkanman, xavotirim kamayish orniga battar avj ola boshladи.

Shundan song erim bilan muloqotni roppa-rosa bir xafka kutishimga togri keldi. Shu vaqt davomida erim Frenk bilan uchrashganligiyu, qisqichbaqa yogi biznesi rejasi qanday ketayotganligiga ham qiziqish,ham xavotir bilan qaragan bolsam-da, ota qimmatga tushadigan telefon aloqasi tufayli Kanadaga telefon qilishga jurat etolmadim. Hammasi joyida bolsa kerak,deya ozimni ovutamanu, boshqa tomondan ichimni xavotir yemiradi. Dam olish kunini ming bir xayolda otkazdim. Oxiri sabrim chidamay dushanba ertalab Frenkka telefon qildim. Uzundan uzun gudok ketar, ammo hech kim goshakni kotarmasdi. A, endi tushundim. Men Koreya va Kanada ortasidagi vaqt farqini hisobga olmabmanku. Bir necha soatdan song yana telefonni qolimga oldim. Sabrim kosasidan toshishiga bir tomchi qolganida goshakni kimdir kotardi va uyqusiragan holatda:

-Xel Xeloo,-dedi.

Men erimni darrov tanidim.

-Nimaga xabar bermaysiz?-dedim salom-aliksiz gazabimni sochib.

U telefondan koreys tilidagi gapni eshitib engil nafas olganligini sezdim:

-Meni kechir,azizam. Osha kuni Frenk bilan uchrashib, uning uyiga joylashdim. Uzoq yillik ayrilik chigilini yozish uchun tungi klubga bordik va ikki kun burnimizdan chiqquncha ichdik, - dedi u ayb ish qilib qoyib,dakki eshitishdan qorqqan bolakaydek ozini oqlab. B'T "Keyingi kuni esa ikkovlashib baliq oviga bordik. Endi ertaga qisqichbaqa yogi boyicha gaplashamiz. Lekin bir muammo paydo bolib qoldi,azizam.

-Qanday muammo?-,yuragim qinidan chiqib ketishiga bir baxya qoldi.

-Konsuellaning juda jaxli chiqdi,-dedi erim ovozini pasaytirib.

-Konsuellangiz kim?

-Konsuella Frenknинг xotini. Aniqroq aytganda, xotini emas. Nikohdan otishmagan,xolos. Nima bolganda ham Frenk bilan birga yashaydi. Frenk shu kunlarda men bilan bolib unga kam etibor bolib qolganligidan gazabda,chogi. Boliq oviga ham uni bexabar qoldirib ketgandik.

-U qiz koreysmi?

-Yoq. Meksikalik,-dedi u pichirlab va qoshib qoydi B'T "Lekin uning ham vazni yuz kilogrammdan osharkan.

Bir zum semiz ikki erkak va ayolning divanga otirgancha televizor korishlarini koz ongimga keltirdim. Juda qiziq

-Xosh,muammo nimada?

-Frenk menga indamasa ham nigohlaridan shuni sezdim. Men Frenknilda turganligim Konsuellaga yoqmayotganga oxshaydi. Bilasanku, bu yerda hayot umuman boshqacha.Shunga erta-indin birorta bir mexmonxonaga kochib otsammikin, - erimning songgi gaplari qulogimga kirmadi.

-Axir pul yoqku - dedim nima deyishni bilmasdan.

-Xavotirlanma. Eng arzon joy topaman. Albatta Frenk mexmonxona haqini tolab beradikuya, lekin xadeb Frenkka yuklayverish ham noqulay.

Pul sozini eshitib peshonamdan ter chiqib ketdi:

-Qanchaga choziladi safaringiz?

-Iloji boricha tezlashtiraman. Hammasi yaxshi boladi,-dedi u gapini tamomlab. Oxirida qopol talaffuzda B«Gud nayt,haney,deb qoshib qoydi. Torontoda soat necha ekanki, menga xayrli tun tilayapti. Meni xamon pul vaximasi osmondag'i qora bulutdek bosib kelardi.

2

Ertasi kuni savdo markazimiz tashkil etilganiga besh yil tolishi munosabati bilan arzon narx aksiyasini otkazishni boshladik.

Bunday paytlarda uy bekalari uzundan uzun navbatni tuzib qoyishadi. Bu degani ish vaqtim yana ikki soatga chozilishini anglatardi. Ish tugashi bilan xorib-charchab yerga otirib qoladigan holga kelardim. Xattoki, uyga qaytib kiyimlarimni almashtirishga ulgurmasdanoq divanga bir zum olish uchun otirib,shu boyi uxbab qolgan choglarim kopaydi. Shunday kunlarda tong maxali qongiroq boldi. U salom-alikdan song quvnoq oxangda:

-Hozir mexmonxonada turibman. Kecha qisqichbaqa yogi narxini surishtirib kordik. Juda arzon ekan,azizam. Agar rejamiz amalga oshsa ikkalamiz hisoblab chiqqandan ham koproq foyda qolarkan,-dedi va birdan mayus xolatda B'T "Lekin mexmonxona sal qimmatroq ekan. Shunga ozroq pul jonata olarmikinsan-a?!

-Ozrogingiz qancha? B'T "dedim sabrim chidamay.

-Hozircha yetti yuz dollar yetadi!

-Tushundim.

Goshakni ildimu yana uyquga ketdim va buni qarangki erimning iltimosini butkul yodimdan chiqaribman. Savdo markazimiz yonidagi bankda odamlar gayjumligini korib esimga tushdi. Yetti yuz dollar bizning pulimizda qancha bolishimi xayolimda taxminan hisoblab chiqdim. Voybo Axir bu mening bir oylik maoshimga teng ekanku. Nailoj yana akamga bosh egib borishga togri keldi

Osha kuni tushdan song Kanadaga pul jonatdim. Qanchalik ichim zil ketsa ham ishqilib oxiri baxayr bolishidan umidvor edim. Shundan song bir xafka davomida erimdan xabar bolmadi. Meni erim pulni oldimi-yoqmi, qisqichbaqa yogi qachon Koreyaga yetib keladi kabi savollar qiyناسа ham Kanadaga telefon qilishga botinolmasdim. Qongiroq qilsam xuddiki yomon xabar

eshitadigandek qorquvgaga tushardim.

Arzon narx mavsumi tugashidan bir nech kun avval erimdan xabar keldi. Ovozida avvalgi quvnoqligidan asar ham qolmagan.

-Ishlar biroz kechikadiganga oxshayapti.

-Nima boldi?-hayratimni yashirolmadim.

-Frenkning muammolari chiqib qoldi.

-Qanaqa muammo?

-Ikki kun avval Konsuella uydan chiqib ketdi.

-Nega?

-Malum bolishicha, Konsuella boshqa yigit bilan don olishib yurarkan. U yigit Chilidan kelgan immigrant bolib, qaysidir kollejda futbol murabbiyi ekan.

-Chili? Haritadagi maydoni ingichka uzun davlatdanmi?

-Ha-da. Ular bir yildan buyon yashirinch uchrashib yurisharkan. Frenk gaflatda qolibdi.

-Xosh endi nima boladi?-soradim yiglamoqdan beri bolib.

-Kecha ikkovlon Frenkning qisqichbaqa yogi olishga yiqqan pullari va mashinasini olib Vankuverga qochishibdi.

-Nimaga-dedim kozyoshlarim kozlarimga quyilib.

-Bugun ertalab Frenk ijara mashina olib Konsuellani tutgani chiqib ketdi.

-Vankuvergami?

-Ha. Shuning uchun Frenk kelguniga qadar uning magaziniga koz-qulq bolib turarkanman. Xavotirlanma, Frenk ular qayerga ketishganligini taxminan bilarkan.

B<sup>«</sup>iroz kutmish. Yo xudo,endi nima boladi. Bunday holatda qanday xotirjam bolishim mumkin. Oyoqlarim tanamni kotarishga kuchi yetmagandek xolsizlanib yerga otirib qoldim. Xayolimda B<sup>«</sup>KonsuellaFrenk Chili Vankuver Futbol murabbiyi Qisqichbaqa yogi kabi fikrlar charx urib aylanardi. Osha kuni tushimga yana qisqichbaqa kiribdi. Lekin bir korindiyu qollarim bilan tutaman deganimda dengiz tubiga garq bolib ketdi.

Oradan bir necha kun otib erim yana pulga ehtiyoj sezib qoldi. Ilojsizlikdan tez kunlarda qaytarib berish sharti bilan hamkasblarimdan ming dollar (dollar va von kursiga organib qoldim) qarz kotarib, Kanadaga jonatdim. Har safar qarz soraganimda jonom bogzimga tiqilib qolar, qarzni qaytarishni oylasam, yana yuragim zil ketardi. Bu orada Frenk Vankuverdan quruq qol bilan qaytibi: Konsuelladan ham, chililik futbol murabbiyidan ham nom-nishon yoqmish. Ammo Frenk erimni xotirjam qilibdi:Hechqisi yoq.Qaytadan pul yigib, albatta biznesimizni boshlaymiz. Dollar kursi tushib, qisqichbaqa narxi ham gox kotarilib, gox tushib turibdi. Sal keyinroq sotib oorganimiz maqul, debdi. Kongilni sal xotirjam qiladigan shuki, Konsuella Frenkn tashlab ketgach erimning mexmonxonada yashashiga xojat qolmadi B<sup>«</sup> Frenkniga kochib otdi. B<sup>«</sup>Yonida turishim ruxiy daldla boladi,dedi erim. Ammo Frenk bolib otgan kongilsizlikdan oziga kelolmay har kuni tungi klubga borib ichib keladigan odat chiqaribdi. Tabiiyki, erim ham unga xamrohlik qiladi. Men har safar B<sup>«</sup>Tezroq ishni bitkazish harakatini qiling,deya zorlanardim. Ish men oylagandan ham chigallashib ketdi. Frenk tungi klubda mastlikda bir qoratanli yigit bilan janjallahish qolib, erimning aytishicha, raqibini B<sup>«</sup>yerga mixdek qoqib qoyibdi. Harbiy xizmatni desant bolimida otamaganmi - qora tanlini qimirlay olmaydigan holatga keltiribdi. Osha joyning ozida Frenk politsiyaga, qoratanli esa kasalxonaga yol olishibdi. Jarima tolab politsiyada qutulgan bolsa ham muammo bu bilan tugab qolmadi. Frenkdan tazirini yegan qoratanli Los-Anjelesdan kelgan bolib, giyoxvand moddalar savdosi bilan shugullanadigan todaga qarashli odam ekan. Bu voqeani eshitib todaboshi gazab otiga minibdi va b<sup>«</sup>gunohkorni topib jazosini berish uchun yugurdaklarini Torontoga yuboribdi. Ular shaharni ostin-ustun qilib yuboribdi. Frenk esa qisqichbaqa haqida oylaydigan holatda emasdi.

-Kechir,azizam. Men ham bunday bolishini kutmagandim. Balki Frenkni bir daqiqaga bolsa-da yolgiz qoldirmaganimda bunday bolmasmidi. Xojatxonaga borib kelgunimga qadar Frenk qoratanlini chilparchin qilib tashlabdi,-dedi erim va meni xotirjam qilish uchun gap oylab topdi.- Xecham xavotir olma. Ular tez orada qaytib ketishadi. Topolmagach,aniq qaytib ketishadi. Bu yer Los-Anjelesga qaraganda ancha sovuq. Bilasanku, qoratanlilar sovuqqa bardoshsiz bolishadi. Yaqinda ob-havo malumotini korgandim:hafta oxiriga borib havo juda sovurkan.

Men qoratanlilar sovuqqa chidamli yoki yoqligi haqida oylaydigan axvolda emasdim. Ular tezroq Los-Anjelesga qaytib ketishlarini sorab duo qilishdan boshqa ilojim yoq edi. Asablarim charchagan, ishda ham, uyda ham chexramni ocha olmasdim. Hatto bir safar haridor bilan gap talashishgacha bordim. Hamma mening ozgarib qolganimdan xayron. Yuzimni qollarim bilan bekitib, xojatxonaga kirdim va eshikni ichkaridan yopib olib yum-yum yigladim. Qisqichbaqa uyimizdagи baxtni asta-sekin parchalab chaynab tashlayotgandek tuyuldi.

Bu orada men Kanadaga ming dollardan ikki marta jonatishga ulgurdim. Qora tanli qaroqchilar esa xaliyam Torontoda och boridek izgib yurishardi. Dard ustiga chipqon deganlaridek ularni safiga yana bittasi qoshilibdi:

-Azizam, ishlar pachava,- deb qoldi erim odatiy qongiroqlarning birida.

-Ha, nima boldi?-men sovuq xabarlarga organib qolgandim. Shuning uchun bu gapni befarq qabul qildim.

-Los-Anjelesdan Frenk keldi!

-Frenk keldi? Torontoda emasmidi Frenk?-hayratlandim.

-Aaa Bu Frenkni aytayotganim yoq. Todaboshi Frenk.

-Todaboshi Frenk?

-Bizni izlayotgan qaroqchilarining boshligi ismi Frenk ekan. U bizning Frenk kaltaklagan qoratanlining togasi ekan.

FrenkToga Men hech narsaga tushunolmadim.

-Xosh, u nega kelibdi?

-Nega kelardi qasos olgani kelgan-da. U Los-Anjelesda shafqatsizligi bilan nom chiqargan ekan. Federal politsiya qora royxatida turarkan. Bir safar kolumbiyalik haridori giyoxvand haqini tolamasdan qochgan ekan, Boliviya gacha quvib borishibdi. Topib juda xunuk holatda oldirishibdi.

Yo Xudoyim,ozing asra Kanada va Koreyani qitalar ajratib turibdi. Bir qita naridagi erining bunaqa gaplaridan qaysi koreys ayoli (nafaqat koreys, butun dunyodagi ayollar) qanday xotirjam bola olardi.

-Endi nima qilasiz?-dedim yana yiglamsirab.

-Nima qilasiz,deyishini buning-dedi erim ensasi qotib.- Hozir Frenk ikkimiz uydan bir qadam nariga chiqmasdan, mum tishlab otiribmiz. Ovqatni ham uyimizga keltirib beradigan kafega buyurtma beryapmiz. Kecha Frenk uyinghamma tomoniga qulf ilib

chiqdi. Osha todaboshi Frenk Los-Anjelesda koreyalik toda bilan ochakishib qolgan ekan. Koreyslar uni itdek xorlabdi. Shuning uchun u koreyslarni jini suymas ekan. Nima bolganda ham Frenk boshqa shaharga yashirinishi lozimga oxshaydi. Meni battar vaxima bosdi. Kallamda ming xil xayol labirintga kirib adashib qolgandak charx urib aylanardi.

-Qissichbaqasiyam kerakmas, tezda chipta olingu Koreyaga qayting,-deya zorlandim.

-Hoziroq qaytardimu Frenkni bunday qiyin axvolda tashlab ketishga gururim yol qoymaydi,-dedi erim jaxl qozonimga ot qalab.

-Gurumi-boshqami farqi yoq. Boshqa jonatadigan pulim ham yoq. Yo Koreyaga qayting, yoki osha yoqlardagi qaroqchilarning oqiga uchib oling,-dedim zardam qaynab va qarsillatib goshakni qoydim.

Tushimga yana qisqichbaqalar kirdi. Bu safar kattaligi odamdek kelarmish. Negadir ular qora tusga kirgandi. Men tomonga yirtqich jonivordek bostirib kela boshladi . Xatto qorquvga soladigan darajada uvillab qoydi. Men qocha boshladim, ammo oyoqlarim ozimga boysunmas, qisqichbaqalar esa meni taqib etardi. Nafasim qisilib,qora terga botib uygonib ketdim.

Erimning Kanadadagi sarguzashtlari poyoniga yetay demasdi. Todaboshi Frenk boshchiligidagi qaroqchilar bizning Frenkni topish uchun xali hamon Toronto kochalarida tentirardi. Erim va Frenk bu orada bir mexmonxonaga yashirinishdi. Ular asli kelib chiqishi koreyalik bolgan xodim orqali yangiliklardan voqif bolib turishdi. Bir kuni Frenk tong qorongusida mexmonxonadan chiqib, Ottavadagi dostoning uyiga qoшибди. Frenk xavfsiz joyda bolsa-da, Torontoda qolgan erim Frenk kabi semiz va kozlari qisiq bolgani uchun bemalol tashqariga chiqolmasdi. Men iqtisodiy tomondan qiynalayotgan bir paytda erim Torontoda Frenknинг uyida yashirinib B<sup>«</sup>vaqt oldirish bilan band edi. Biz todaboshi Frenknинг kongli yumshab, Los-Anjelesga ketishini tilar, shundagina dostoning uyida pusib yotgan bizning Frenk Torontoga qaytar va qisqichbaqa biznesini boshlardi.

Nixoyat yorug xabar eshitadigan kunim ham yetib keldi. Ishonchli mexmonxona xizmatchisi erimga todaboshi Frenk qasosdan voz kechib, ortga qaytayotganligini yetkazibdi. Bu xabardan song bir necha kun erimdan darak bolmadidi. Men: B<sup>«</sup>Balki qisqichbaqa narx-navosini surishtirib band bolsa kerak,deya ozimni ovutdim. Lekin bu xotirjamligimni erimning gaplari chil-chil sindirdi:

-Todaboshi Frenk xaliyam Torontoda!

Erimning xufiyasi keltirgan xabariga kora, todaboshi mexmonxonada oddiy ofitsiant bolib ishlaydigan asli shveysariyalik gozal Eyrilning nigohiga asir bolib qolibdi. U yugurdaklarini Los-Anjelesga jonatib yuboribdiyu, ozi Yevropani eslatib yuboradigan Kanadada nomalum muddat qoladigan bolibdi. Shafqatsiz todaboshi hamma narsani yigishtirib, ozi bilmagan holda yaxshi tomonga ozgara boshlabdi. Bizning umidimiz endi Eyrildan edi - u Los-Anjelesda yashashni xoxlashi kerak edi. Dostinikiga yashiringan bizning Frenkni unutib ham yuboribman. Todaboshi Frenk Bizning Frenk

Buyogiga ham todaboshi Frenk va Eyril haqida ozgina sozlab bersam.

Erimning xufiyasi aytishicha, Eyril ota-onasi bilan yasharkan va tabiiyi, Eyrilning Los-Anjelesga ketishi uchun ularning roziligin olish talab etillardı. Otasi uzoq Yevropalik millatchilarga qarindosh shekillik, qizining qoratanli yigit bilan axd-paymon qilishganligidan gazablanibdi. Lekin uddaburon todaboshi bu muammoni xamirdan qil sugurgandek xal qilibdi: Eyrilning onasiga qimmatbaxo soat,otasiga esa Yaponiyadan keltirilgan golf oyini buyumlarini sovgaga qilibdi. Millatchi otaning ham konglidagi muzlar eriy boshlabdi. Todaboshi narxi oltmish ming dollarlik Kadillak avtomobilini sovgaga qilgan kuni dasturxon ustida:

-Qoratanlilar odam emas. Ular xayvondan farqi bolmaydi. Men qoratanlilarni yomon koraman. Lekin Frenk bundan mustasno. Frenk qoratanli emas. Uning tashqi qiyofasi qora,xolos. Ichi oppoq. Shunday ekan qizimning u bilan baxthi bolishiga ishonaman!-deb songgi qarorini aytibdi.

Bizning umidlarimiz asta kurtak chiqara boshlagan va Frenk Ottavadan qaytishga tayyorgarlik korayotgan bir paytda yana B<sup>«</sup>qovun tushdi:kimdir Eyril va todaboshi Frenknинг marixuana chekayotganligini korib qolibdi. Buni eshitgan qizning ota-onasi Frenknинг B<sup>«</sup>ichi oqligiga shubxa bilan qaray boshlabdi. Olganni ustiga tegpandek, millatchi otaga sovgaga qilingan Kadillak ogirlangan mashina ekan. Politsiyada soroqqa tutilgan ota yana gazab otiga minibdi. Kuchli boronga duch kelgandek umidlarimiz puchga chiqqa boshladi.

Erim Kanadaga ketganligiga uch oy tolayotgandi. Qiyin axvolda yurgan kunlarimning birida akam telefon qilib qoldi. U odatdagidek gaplarini uzundan uzun nolish bilan boshladi. Dokoni uchun yangi maxsulotlar olib kelishi lozimligini aytarkan, menga bergen qarzini qaytarishimga ishora qildi.

-Kechiring,aka. Hozir qachon qaytara olishimni aytishim qiyin,-dedim labimni tishlab.

-Nega axir? Nega?-birdan akam asabiy baqirib yubordi.-Uch oy ichida qaytaraman degandingku.

-Ha,shunday degandim. Lekin Ishlarimiz pachava

-Nima boldi? Narsalar xali ham yetib kelmadimi?

-KelmadiFrenk xaliyam Torontoda ekan. U Los-Anjelesga qaytib ketsa boldi-edi

-Frenk? Frenk kim ozi?-akam meni alaxsirayapti deb oyladi.

-Frenkmi? Yo Xudoyim, hammasini boshidan gapirib berishim kerak

Shundan keyin ikki oy otib erim qaytib keldi. Issiq va dim havoda terlatib kiyim badanga yopishib qoladigan yoz ham kirib kelgan edi. Men kutib olish uchun tong sahardan mashinamda aeroportga qarab yol oldim. Kanadadaligida erim naq ottiz kilogrammga ozib, bir qarashda tanib bolmas qiyofaga kirgandi. Uni uzoqdan kordimu yiglab yuboray dedim. U ham ayni mening holatimda edi. Kozlari qirtayib, juda charchaganligi bilinib turardi. Yolda kelarkanmiz, kozlarini yumib oyga tolgancha otirar, damba-dam chochib atrofga alanglardi.

Uyga yetib kelgach, u yuvinib ham otirmasdan ozini divanga otdiyu uyquga ketdi. Lekin ikki soat ham uxlamasdanoq ornidan turdi va uzun koridorli xonamizga chiqdi. Endi esiga kelgandek:

-Ogilim qayerda?-deb soradi.

-Togarakka tashlab keldim.

Hech narsaga tushunmagandek merovlanib bir zum oyga toldi. Vanna qabul qilib chiqqach, semirmsandan avvalgi davrlaridagi kiyimlarini kiydi. Xayriyatki, mos tushdi. Oynaga qarab ozini tomosha qildi va yana atrofga qorqqandek alanglab qoydi. Shundan song koksimga boshini qoyib, yosh bola kabi yum-yum yiglay boshladi. Men nima qilishimni bilmasdan uning oq aralashgan sochlarni siladim. U ozini bosolmasdan silkinib yiglarkan tinmasdan uzuq-yuluq tovushda kechirim sorardi. Beixiyor mening ham kozlarimga yosh shashqator boldi. U Kanadaga ketishidan oldin menga aytgan gaplari ogzimdan chiqib ketdi:

-Xavotrlanmang. Hammasi yaxshi boladi!

Koreyaga qaytib kelganidan ikki oy otibgina erim elektr pechkasi chiqaradigan zavodga ishga joylashishga muvaffaq boldi. Ish topish ayni mushkul bolgan kunlar edi. Ayni qish chillasida uzoq tanaffusdan keyin Frenkdan qongiroq boldi. U Ottavada yangi

This is not registered version of TotalDocConverter

magazinlarning oson tarmoqiga mosdi. Qolmo ketgan Konsuellani butunlay unutibdi va xattoki yangi maxbuba topishga ham ulguribdi. Yangi sevgilisi braziliyalik bolib, u ham yuz kilogram tosh bosarkan. Aytishicha, Konsuellaga qaraganda semizroq bolsa ham, har holda undan kora yoshroq va gozalroq ekan. Shuningdek, ismdoshi todaboshi Frenk ham Los-Anjelesga qarab ravona bolibdi.

-Oxiri nima bilan tugadi?-soradi erim qiziqib.

-Bir kuni Eyrilning ota-onasini olik holda topishibdi va bechora qiz yiglay-yiglay todaboshining ortidan ketdi,-dedi Frenk va qoshib qoydi.-Hamma muammolarim xal boldi. Endi dengiz qisqichbaqasi biznesini boshlasak boladi. Qachon kelasan Kanadaga?

-Raxmat,oshna. Hozir ishlarim kopayib, bosh qashishga ham vaqtim yoq,-deya erim nozikkina rad etdi.

Frenk bir zum jim qoldi va:

-Tushundim. Vaqtin bolganda, xotining bilan albatta mexmonga kel,-dedi.

Kanadadan kelganidan buyon erimda anchagina ozgarishlarni kordim. Doim xazillashib,kulib turadigan yuziga hayot tashvishlari

soya solgandek. Vaqt otib borardi. Biz nihoyat akamdan olgan qarzimizdan ham qutuldik. U doimgidek nolishni boshladи:

-Ishlarim orqaga ketgan. Narsalar sotilmayapti. Odamlar nimalarga qiziqishlarini surishtirib yuribman.

Men supermarketda ishimni davom ettirdim. Toxtovsiz yuguradigan futbolchi kabi ishlar, bolamga qarashga ham vaqtim bolmasdi. Yaqinda erim maoshi baland kompaniyaga ishga kirdi va buni nishonlash uchun oilaviy toplanib, dengiz qisqichbaqasidan taom tayyorlaydigan kafega bordik. Xanuz odamlar gavjum,atrofda bunday kafelar kopaya boshlaganligini endi ilgadim. Biz ovqatlanarkanmiz, todaboshi Frenkni esladirik. Nima bolganda ham Eyril bilan baxtli hayot kechirishsin. Brazliliyalik qiz esa ozimizning Frenkni tashlab ketmasligini tiladik. Yuzimizga sal tabassum qongandek boldi. Frenk, Toronto, Vankuver,Konsuella,Chililik futbol murabbiyi, Boliviya,Kolumbiya,Eyril,Kadillak mashinasi Bazilari bizni ranjitgan, bazilari esa yuragimizga umid bergen bu nomlarni eslarkanmiz qattiq kulib yubordik. Atrofdagi xorrandalar bizga xayratlanib tikilishsa ham biz ozimizni kulgudan toxtatolmasdik.